

# O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMDAGI SAYOHATNI QULAYLASHTIRISH MAQSADIDA TURISTIK UY FURGON MASHINALARINI O'ZBEKISTONDA YO'LGA QO'YISH

**Salimova Gulchiroy**

**Amrulloyeva Gulnoza**

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti talabalari*

*Fakultet: Turizm*

*Guruhi: Toue31*

Email: [gulchiroy.1901@gmail.com](mailto:gulchiroy.1901@gmail.com) [amrulloyevagulnoza@gmail.com](mailto:amrulloyevagulnoza@gmail.com)

Nomer: +998998062437

+998950232482

*Ilmiy rahbar: Nurmatova Sitora*

[sitora-nurmatova@mail.ru](mailto:sitora-nurmatova@mail.ru)

Nomer: +998 97 751 07 31

**Anatatsiya:** Ushbu maqola O'zbekistonda ichki turizmni yaxshilash va yanada takomillashtirish maqsadida, avtomobil yo'llari infrotuzilmasini rivojlantirish va bu bilan mashina uy furgon mashinalarini tog'li hududli yo'llarda qulay harakatlanishi uchun imkon yaratish va hali ommalashib ulgurmagan maskanlarni internet orqali ommaga tadbiq etish va bu orqali xalqimizni ichki turizmga bo'lgan talabini yanada oshirish va furgon mashinalar bilan sayohat etish nafaqat hamyonbop va qulayligi, furgon mashinadan foydalanishning afzalliliklari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ichki turizm, infrotuzilma, ommalashmagan maskanlar, furgon mashinalar.

## **Kirish.**

Uy furgon mashinasi bilan sayohat qilish bu siz istalgan joyda qolishni tanlashingiz mumkun demakdir. U o'rmon ichidami, go'zal tog' bo'yidami yoki sokin ko'l bo'yida bo'ladimi tabiat qo'ynida bema'lol dam olasiz. Uy furgon mashinasining cheksiz imkoniyatlari uni ish va yo'lida sayohat qilish uchun eng yaxshi vositaga aylandi. Yo'lida sayohat qilish qayiq yoki samolyotdagiga o'xshamaydi, u yerda siz faqat manzilingizga qo'nasiz. Yo'lida uy furgon mashinasida bo'lganingizda vaqtningiz imkon qadar ko'proq va istagan manzilingizda to'xtashingiz mumkun.



Yo'lda sayohat qilish arzonroq bo'lishi bilan birgalikda bu sizga byudjetdan ko'proq joylarni ziyorat qilish uchun dastlab o'ylaganingizdan ko'ra ko'proq imkoniyat beradi. Yo'lda uy furgon mashinasida sayohat qilish, bir aftobusdan ikkinchisiga sakrashdan ko'ra qulayroq, shuning uchun siz sayohatdan zavq olishingiz va ko'proq joylarni ko'rish uchun uzoq yo'lli sayohatlardan qo'rmasligingiz mumkun, endi esa hali ommalashib ulgurmagan manzillar mavzusiga kelsak bilasizki, yurtimizning nafaqat tabiatи chiroyli, shuningdek bir-biridan go'zal maskanlarimiz bor, faqat ular hali yaxshi ommalashmagani sababli, ko'pchilik insonlar bundan bexabar. Agar e'tibor bergen bo'lsangiz, ko'pchilik yani mahalliy aholi yoz mavsumida dam olgani chorvoq, oqtosh, bo'chka joylarga borish bilangina cheklanishadi, vaholanki bizning yurtimizda urungach yani ko'pchilikka nefrit ko'li deb tanilgan, undan tashqari tovoqsoy, achchiq ko'l va boshqa turli tuman go'zal ko'lu bog'rog'larimiz bor, faqat u yerni ko'pchilik bilmasligi sababli u yerlarga tashrif buyurishmaydi. Ammo ohirgi 2-3 yil ichida nefrit ko'li biroz bo'lsa ham ommalashti deya olamiz. Ko'pchilik Mahalliy aholi u yerga tushgan rasm-videoolarni ishtimoiy tarmoqlarga yuklash orqali u yer kopchilik insonlarga tanildi, shunday bo'lsa ham u yerga borganingizda ko'pchilik yani olomonni kormaysiz chunki u yerga borish va chiqish qiyin, borishku maylikuya u yerga chiqish amrimahol, yengil aftomobilda chiqish esa juda qiyin, agar kuchingiz yetsa u yerga piyoda yurib chiqasiz yoki yarim yo'lda ortga qaytishingizga to'g'ri keladi. Biz nafaqat infrotuzilmani yaxshilash bilan cheklanmasdan mana shunday chiqishi qiyin bo'lgan tog'dagi yo'llarni ham yaxshilashimiz, mahalliy aholi yani turistlar u yerlarga qiyalmay chiqishi uchun shart-sharoit yaratishimiz kerak. Ushbu maqolada sifat va taqqoslash jihatdan tadbiq etishda ilmiy abstraksiyalash usulidan foydalaniqan.

### **Asosiy qism:**

Ana endi uy furgon mashinalariga keladigan bo'lsak, uy furgon mashinasi qanday o'zi? Uni oddiy aftomobildan qanday farqi bor?



### Uy furgon mashinalarning ichki va tashqi ko'rinishi



1

2

3

Uy furgan mashinalari oddiy avtomobilga qaraganda kattaroq bo'lib orqa qismi har-xil sharoitlarda jihozlangan bo'ladi; masalan birinchi turdag'i uy furgon mashinasini sizni faqat keng yotoq bilan taminlay olishi mumkun, ikkinchi turida esa unda yotoq, televizor, xaladnik va boshqa oshxona buyumlari ham bo'ladi yani u yerda o'z uyingizdagidek ovqat pishiringiz mumkun bo'ladi. Uchinchi turdag'i uy furgon mashinasini esa oldingilariga qaraganda kattaroq bo'lib ichiga ko'p kishini sig'dira oladi va ichi ham hashamatli jihozlangan bo'ladi. Tarixda birinchi uy furgon mashina sayohati 1885-yilda doctor Uilyam Gordon Stables<sup>56</sup> tomonidan "The Wanderer"<sup>57</sup> deb nomlangan furgon mashinasida bo'ldi. Viktoriya davrining mashxur yozuvchisi bo'lgan Doktor Stables bu uy furgon mashinasini safarida ot kuchidan foydalangan holda 1400 ml yo'l bosib o'tgan. Birinchi jahon urushidan so'ng jamiatning yuqori qatlamlarining kundali hayotiga avtotransport vositalarining kiritilishi bilan 1919-yilda Angliyaning Birmingham shaxrida Eccle nomli avtomobil tomonidan tortiladigan uy furgonlari ishlab chiqarila boshlandi. Uy sharoiti va qulayligi, istagan har yerga bora olish imkonini qit'a va dunyo bo'ylab sayohat qilishga yo'l ochdi va shu yusunda shakllangan turmush madaniyati atrofida birlashgan kishilar tomonidan tashkil etilgan obyektlar foydalanishga topshirildi. Bu yerdan anglashilishi mumkinki, karvon 19-asrdan boshlab nafaqat transport vositasi sifatida foydalilanigan, balki odamlarning ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy faoliyatiga ham o'z tasirini o'tkazib, dunyoga bo'lgan qarashlarni shakllantirgan. Har bir bo'lakda qulaylik birinchi o'rinda turadigan bugungi kunda uy furgon mashinalarni ishlab chiqarish texnologiyalari tufayli doimiy ravishda yangilanib, ihcham, nihoyatda qulay yashash va sayohat qilish imkonini bermoqda. Ushbu qulay va

<sup>56</sup> Uilyam Gordon Stables-shotlandiyada tug'ulgan qirollik dengiz floti shifokori va sarguzashtli fantastika muallifi.

<sup>57</sup> "The Wanderer"-Maqsadsiz sayohat qiluvchi odam





ihcham furgon mashinalari maqsad va byudjetga qarab haridorlarga maxsus ishlab chiqilishi mumkun, yoki ular mavjud ular mavjud prototip namunalaridan tanlashi mumkun. Uy furgon mashinalarida sayohat qilish Turkiyada ham keng tarqalgan va ancha rivojlangan bo'lib u yerdan istagan turdag'i uy furgon mashinasini topishingiz mumkun. Uy furgon mashinalari Turkiyada asosan sayohat va dam olish maqsadida foydalanilayotgan bo'lsada furgondan yashash joyi sifatida foydalanadiganlar soni ham anchagina. Ayniqsa xorijda ko'proq odamlar tomonidan afzal ko'rilgan turmush tarzi Turkiyada ham keng tarqala boshladi.

**Tahlil va natijalar:** Ichki turizmni rivojlantirish uchun so'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan maxsus farmon va qarorlari chiqarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi 2008-yil 3 fevraldagi 5326-son Farmonini ijrosini taminlash, shuningdek hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, fuqorolarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiy boyliklari bilan tanishtirish maqsadida: bir qancha dasturlar ishlab chiqilgan.

Masalan; "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil" Dasturi doirasida hududlarda turistlar oqimi past bo'lgan davrda amalga oshiriladigan sayohatlarga turistik infrotuzilmani tayyorlash bo'yicha kompleks choralarни o'rganish va qabul qilish, jumladan: joylashtirish vositalari, jamoat ovqalanish punktlari, sanitariya gigiyena uzellari, transport vositalari, madaniy meros obyektlari va boshqa diqqatga sazovor joylarni inventarizatsiya qilish va xizmat ko'rsatishga tayyorlash.

1.Yo'l-ma'lumot ko'rsatkichlarini va boshqa turistik navigatsiya ko'rsatkichlarini o'rnatish/yangilash, turistik infrotuzilma obyektlarida turli madaniy ko'ngilochar tadbirlarni o'tkazish.

2.Ekskursiya paytida foydalanish uchun zarur bo'lgan borib ko'rishga tavsiya etiladigan obyektlar va hududlar ro'yhati, shu jumladan O'zbekistonning tarixiy va zamонавиј diqqatga sazovor joylarining ro'yhatini, axborot-targ'ibot materiallarini tayyorlash va sayohatlar muvofiqlashtiruvchilariga jo'natish.

Ho'sh bu sayohat va ekskursiyalarni uy furgon mashinalarida qilish qanday bo'larkin? O'zbekistonda uy furgon mashinalarini qaysi turini yo'lga qo'yganimiz afzalroq? Ichki turizmga uni qanday foydasi bo'ladi? Birinchi navbatda vaqtдан



yutasiz yani har xil ehtiyojlar uchun yo'lda to'xtashingizga hojat qolmaydi, ikkinchisi esa ichida yotoq, televizor, gaz plitasi, borligi sababli yo'l davomida aslo zerikmaysiz.Bundan tashqari,ushbu tanlov erkinligi kun davomida borishni xohlagan joylarni tanlashni o'z ichiga oladi.Qayerga borsangiz ham to'shagingiz va oshxonangiz yoningizda bo'ladi,shuning uchun o'zingizni sayohat davomida stress va cheklanishni his qilmaysiz.Uy furgon mashinasining eng katta afzalliklaridan biri bu sayohat qilishning eng arzon usullaridan biridir,va siz benzin va boshqa xarajatlar uchun pul to'lashingiz kerak bo'lsada,lekin umuman olganda,hisob-kitob qilsangiz bu samolyotda bir manzildan ikkinchi joyga uchishdan ko'ra arzonroq bo'lishi mumkun Istagan paytingiz hohlagan yeringizda to'xtab dam olish imkoniga egasiz. Bir tasavvur qiling a uy furgon mashinasida sayohatga chiqdingiz va uning ichida televizor, yotoq, oshxona buyumlari va sizga kerakli boshqa narsalar bor, hohlagan paytingiz to'xtaysiz, ovqatlanasiz, dam olasiz, uxlaysiz, televizor ko'rasiz, istagan daryo, ko'l, o'rmon yonida va u yerda tunab qolish, erta tongni esa suv bo'yida kutib olish ajoyib hissiyat bo'lsa kerak nazаримда.Undan tashqari ovqatlanish va uslash xarajatlaringiz ham sezilarli darajada kamayadi.Mehmonxonalar yoki kvartiralarda bir joydan ikkinchisiga chiqish ro'yxatdan o'tishda tungi tariff uchun to'lash shart emas. Ho'sh uy furgon mashinalarin qaysi turini O'zbekistonda yo'lga qo'yganimiz afzalroq va uning afzalliklari. Bu uy furgon mashinalari chet-elda keng tarqalgan va ancha rivojlanganligi bois uning turli xil dizayindagilarin topishingiz mumkun. O'zbekistonda yo'lga qo'yishimiz mumkun bo'lgan furgon turi bu tayyor motokaravan deb ataladi.Ushbu turdagи transport vositalarining aksariyati hajmiga qarab elektr jihozlari, suv inshootlari, pechka tizimlari va dush xonalari mavjud va albatta siz o'z bjutingizdan kelib chiqqan holda motokaravanlarni o'zingiz istagan sharoitlarni aytgan holda buyurtma berishingiz mumkun, yani standard, luks deganlaridek. Uy furgon mashinasida butun oila bemalol uxlashi mumkun. Shunday qilib siz uy furgon mashinani ijara qilishigiz kerak bo'lsa ham, sayohatning umumiylarini narxi mehmonxonalarga qaraganda ancha arzon bo'lishi mumkun. Bu tayyor motokaravanlarni O'zbekistonda yo'lga qo'yib yani turistlarga va o'zimizni mahalliy aholiga ijara qilish orqali ichki turizmda sayohatni yanada yengillashtirgan hamda turist va ichki aholiga mehmonxona va harhil otel va hostellardan turishdan ancha qulay va hamyonbop bo'lgan bo'lar edi,undan





tashqari taom uchun restoran kafelarda ovqatlanish qimmatga tushishi mumkun. Supermarketlardan tayyor ovqatlarni oldindan olish arzonroq. Uy furgon mashinasida sayohat qilishning yana bir afzallik tomoni siz ko'pchilik sayyoohlар borishni xayoliga ham keltirmaydigan joylarni o'rganish imkoniyati mavjud bo'ladi. Undan tashqari uy furgon mashinangizda yumshoq o'rindiq va to'shakka ega bo'lasiz va noqlay ob-havo va yovvoyi tabiatdan xavfsiz bo'lasiz. O'zingizni uyda his qilasiz. Ijaraga olingan furgonning ichki qismi o'zingizni uydagidek his qilish uchun qulaydir. Sayohatingiz davomida qulaylik va qulaylikdan bahramand bo'lish uchun muzlatkich,ko'rpa-to'shak,hammom va hatto o'rnatilgan oshxona kabi xususiyatlardan tanlang. Uy furgon mashinasi mashina haydash mumkun bo'lgan har qanday joyga borishi mumkun,qaysi yo'nalishlar mos kelishini va qayerda yetaricha katta to'xtash joylari bo'lishini aniqlash uchun qo'shimcha rejalashtirish shart emas. Uy furgon mashinasida siz ertalab turib shunchaki ketishingiz mumkun. Chodiringizni qurib,keyinroq qayta o'rnatib o'tirishingizga aslo hojat yo'q. Sizning uy furgoningiz sizning uyingizga aylanadi va har bir ekskursiyadan so'ng sizni kutadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak,O'zbekistonda ichki turizmni yaxshilanishida turistik infrotuzilmani rivojlantirish,turistlar oqimi past bo'lgan yerlarni o'rganib ularni yaxshiroq ommaga tadbiq etish orqali ichki turizmga bo'ladigan talab yana ham oshishi mumkun,undan tashqari sayohatni qulay va oson

qilish maqsadida furgon uy mashinalarini yo'lga qo'yish va uning afzalliklari ko'rib chiqildi. Uy furgon mashinalarida sayohat qilish nafaqat qulay,va boshqa turar joy yani mehmonxonalarda qolishdan ko'ra uy furgon mashinalarini ijraga olib ishlatalish ancha hamyonbop bo'lib,istagan joyingizga sayohat va yashash uchun ideal bir vositadir.

## ELEKTRON RESURSLAR:

<https://lex.uz/docs/-5991928>

[https://www.ntv.com.tr/amp/galeri/otomobil/tatilin-yeni-modasi-karavanlar-hakkinda-merak-edilen-her-sey,9\\_uh1w5Z7U-2Xz9FTVjqvg](https://www.ntv.com.tr/amp/galeri/otomobil/tatilin-yeni-modasi-karavanlar-hakkinda-merak-edilen-her-sey,9_uh1w5Z7U-2Xz9FTVjqvg)

<https://campervanhawaii.com/posts/6-benefits-of-renting-a-campervan/>

<https://www.admiral.com/magazine/guides/travel/10-reasons-why-you-should-buy-a-campervan?amp>



<https://www.campervantraveler.com/7-benefits-of-camper-van-travel/>  
<https://travelinspiredliving.com/somesurprising-benefits-of-van-camping/>  
<https://www.aworldtotravel.com/advantages-and-disadvantages-of-campervans/>

